

TALABALARDA IJTIMOIY USTANOVKALAR SHAKILANISHINING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI

Bekbolayev Javlonbek Jumanazar o'g'li

Guliston davlat universiteti tayanch doktorantura talabasi

Ilmiy rahbar: Xolnazarova Matluba Xolbo'tayevna
Guliston davlat universiteti psixologiya kafedrasi professori

Annotatsiya:

Maqolada talabalarda ijtimoiy ustanovkalar shakilanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari,mexanizmlari,talim-tarbiyaga tadbiq qilish shart-sharoitlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ustanovka,mexanizm,ta'lif-tarbiya,psixologik muhit,psixologik norma.

Annotation:

In the article it is written about the socio-psychological characteristics,mechanisms of formation of social master classes in students,the conditions for their introduction into training.

Keywords: social ustanovka, mechanizm,education, psychological environment, psychological humiliation

Аннотация: В статье описаны социально-психологические особенности,механизмы формирования социальных установок у учащихся,условия их применения в обучении.

Ключевые слова: социальная установка,механизм,воспитание,психологическая среда,психологическая норма.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 20.04.2017 yil 2909-sonli "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori e'lon qilindi. Ushbu farmonda Oliy ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko'rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta'minlash shart sharoitlari keltirib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn

Sinolar, Ulug’beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g’oyamizning asosiy ustunlari bo’lib xizmat qilishi lozim.

Shundan kelib chiqan holda oliy talabalarida ijtimoiy ustanovkalarni o’rganish o’z-o’zidan zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Inson faoliyatni asosan hayot tamoyillari, qadriyatlarini aks ettiruvchi va shaxsning xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy ustanovkalar bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy ustanovkalarning xulq-atvorga haqiqiy ta’siri darajasi hali aniqlanmagan bo’lsa-da, olib borilgan tadqiqotlarimiz asosida, talabalarda ijtimoiy ustanovkalarning shakilanishining ijtimoiy psixologik omillarini to’la qonli ochib berishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqotimiz talabalarda ijtimoiy ustanovkalarni shakllantirish va o’zgartirish muammosini o’rganishda nafaqat ijtimoiy ta’sir hodisasini ko’rib chiqishga, balki shaxsning xatti-harakatlariga ta’sir qilishning samarali mexanizmlarini aniqlashga yordam beradi. Shu sababdan biz tadqiqotimiz “Talabalarda ijtimoiy ustanovkalar shakillanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusida oldik.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotimiz mavzusiga oid chet el olimlarining ishlarini tahlil qilib chiqdik. R. Tarner va J.I. Killian kabi mualliflar o’zlarining ishlarini ijtimoiy harakatlarni va ularning shaxsning ijtimoiy faoliyatiga ta’sirini o’rganishga bag’ishladilar.

Ijtimoiy harakatlarni ko’rib chiqish G. M. Andreeva, M. Sokolov asarlarida uchraydi. Ijtimoiy faollik L. I. Bojovich, A. V.: Brushlinskiy, K. A. Abulxanova va boshqalarning asarlarida ko’rib chiqilgan.

Ijtimoiy ustanovkalari tushunchasini o’rganish U. Tomas va F. Znanetskiy asarlariga kiritilgan. Bundan tashqari, ushbu ijtimoiy-psixologik hodisa G. Allport, JI Ternstounlar tomonidan o’rganilgan. D. N. Uznadze ustanovkalarni faqat umumiyligi psixologiya nuqtai nazaridan o’rganib chiqdi, bu erda ustanovka inson aqliy jarayoni. Shaxsning ijtimoiy xulq-atvorini tartibga solishning dispozitsion kontseptsiyasi V. A. Yadov tomonidan taklif qilingan. Ommaviy xulq-atvorning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari G. Lebon, G. Tard, S. Moskovichi, asarlarida ko’rib chiqilgan. Ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni o’rganish muammosiga G. M. Andreeva, P. C. Nemov, V. N. Voronin va boshqalar e’tibor berishdi. O’zbekistonda ayni paytda bu muammo doirasida pedagogik, falsafiy, psixologik va turli nuqtai nazarlardan har xil yo’nalish va mavzularda ilmiy tadqiqotlar olib borgan zamondosh olimlarimizning ilmiy izlanishlari ham mazkur tadqiqotning dunyoga kelishiga turtki bo’lib, unda qo’yilgan muammolarni hal qilishda o’ziga xos ko’mak berdi. Jumladan, M. Maximudova, G.J. Tulenova, T. Egamberdieva, Q.Q. Quranboev, I.R. Safarbuvaeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ijtimoiy faollik va shaxsni faollashtirish muammolari

pedagogik, psixologik hamda falsafiy jihatdan yoritib berilgan. Q. Quranboevning tadqiqot ishi esa «Talabalarning ma’naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida)» deb nomlanib, talabalarning ma’naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning uslublari va mazmuni, uning pedagogik asoslari yaratib berilgan. Muallif ilmiy kuzatishlarida ma’naviy-axloqiy muammolar, yoshlar ta’lim-tarbiyasida ongli intizomning o‘rni, burch va mas’uliyat, jamoatchilik sifatlarini tarkib toptirish muammolari tahlil qilinadi. Bu izlanishlar natijalarining ilmiy xulosalari ko‘rsatib o‘tiladi. Har ikki tadqiqot ishida ham yuqorida bayon etilgan holatlarda talaba va kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar faoliyatini tashkil etishning mazmuni, maqsadi, metod, shakl va vositalari xususida to‘xtalib o‘tilgan. A.Akramov tomonidan «SHaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish» nomli tadqiqot ishida fuqarolik, fuqarolik pozitsiyasi, shaxsiy nuqtai nazar, fuqarolik mas’uliyati, vatanparvarlik, burchga sadoqat, fidoyilik kabi tushunchalarga mualliflik nuqtai nazaridan yondashilgan va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy metodik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. I.R. Safarbuvaeva «O‘quvchi shaxsini faollashtirishda milliy mentalitet elementlaridan foydalanishning pedagogik asoslari» nomli tadqiqot ishida o‘quvchi shaxsining faollashuv jarayoniga bir qator omillar o‘z ta’sirini o‘tkazishini va bu ta’sirlar quyidagilardan iborat ekanligini ta’kidlab o‘tgan: – jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitning qaror topganligi; – fuqarolar ma’naviy-axloqiy etukligini ta’minalash masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi; – ta’lim-tarbiya ishlarining muayyan maqsad asosida tizimli, uzlusiz va izchil olib borilayotganligi; – tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega sub’ektlar imkoniyatlarining yagona ijtimoiy maqsadni amalga oshirilishiga yo‘naltirilganligi; – shaxs omilining ijtimoiy munosabatlar jarayonida etakchi mavqega ega bo‘lishi va boshqalar. Faylasuf olima G.J.Tulenova «Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil)» nomli tadqiqot ishida ma’naviy omilning yoshlarning kasbiy xulqiga, ijtimoiy mo‘ljallariga, amaliy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini falsafiy-metodologik jihatdan atroflicha o‘rganish hamda mavjud muammolarni echish borasida xukumat va jamoatchilik sa’y-harakatlarini uyg‘unlashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqqan. Sotsiolog I.Ergashev tomonidan esa bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida yoshlarning ijtimoiy faolligi sotsiologik tahlil qilingan. Yoshlar ijtimoiy faolligini rivojlantirish muammolari bo‘yicha olib borilgan turli sohalardagi tadqiqotlar mazmunini o‘rganish asosida quyidagicha xulosalarga keldik:

1. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning mazmunini asoslash, uning metodikasini ishlab chiqish pedagogika fani va amaliyoti oldidagi muhim vazifa hisoblanadi.

2. O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish shaxs umumiyligi kamolotini hamda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligi, bugungi kunga qadar yaxlit pedagogik jarayon sifatida tadqiq etilmaganligi ta’kidlanadi.

3. O‘quvchi-yoshlarning ijtimoiy faolligi ularning ijtimoiy munosabatlari jarayonidagi ishtirokiga bog‘liq bo‘lib, shaxsning ijtimoiy borliqqa munosabatini belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardayoq mamlakat aholisi, shu jumladan, yoshlar o‘rtasida mustaqillik g‘oyalarini targ‘ib etish, ularda istiqlolni mustahkamlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy faollikni qaror toptirish vazifasi kun tartibiga qo‘yildi. Bu boradagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda ta’lim-tarbiya jarayonining roli katta.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalarning psixologik diagnostika tayyorgarligining psixologik shart-sharoitlarini aniqlanganligi; ta’lim tizimi uchun psixologik diagnostika dasturlari ishlab chiqilganligi; ta’limni psixologik diagnostika asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik ta’milot (ilmiy-metodik tavsiyalar)ning mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati psixologik diagnostikaga tayyorlashni takomillashtirish modeli amaliyotga joriy etilgan, ishlab chiqilgan psixologik diagnostik dasturlardan ta’lim amaliyotida foydalanilayotgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Oliy ta’lim muassasasi talabalarda ijtimoiy ustavokkalarning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlangan va tavsiflangan;
- O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy ustavokkalarning rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari asl tasnifini tuzilgan; ,
- Oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijtimoiy ustavokkalarning shakilanishi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini emperik metodlar yordamida o’rganilgan;
- ijtimoiy ustavokkalarning talabalarning ijtimoiy faoliyatiga ta’sirini aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

1. Talabalarda ijtimoiy ustavokkalarni shakillantirishning asosiy psixologik omillari (ishontirish, taklif qilish va motivatsiyaning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ta’sirida namoyon bo‘ladi), ustavokka omili (ijtimoiy o‘ziga xoslik, ijtimoiy yordam va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari ta’sirida namoyon bo‘ladi) va faoliyat omili (ijtimoiy-psixologik mexanizmlar ta’sirida namoyon bo‘ladi). muvofiqlik, yuqtirish va taqlid qilish).

2. Talabalarda ijtimoiy ustavokkalar shakilanishiga ijtimoiy-psixologik omillarning quyidagi ta’siri aniqlandi: ijtimoiy o‘ziga xoslik, ijtimoiy yordam va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari

3. Ijtimoiy ustavokkalarning ishlab chiqilgan tasnifi O‘zbekistonda zamonaviy yoshlar ijtimoiy ustavokkalarining asosiy turlarini, ular tomonidan ilgari surilgan fuqarolik

pozitsiyasining yo'nalishiga, harakatlarning rasmiylashtirilga darajasiga va ularning faoliyat doirasiga qarab o'z ichiga oladi, bu esa ijtimoiy ustanovka qaysi turlarida ishtirok etishi mumkinligini bashorat qilishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan psixologik diagnostika, uslubiy va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot natijalari va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

XULOSA

Yoshlarning ijtimoiy harakatlardagi ijtimoiy ustanovkalari o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash, oliy ta'lim tizimida talabalarda ijtimoiy ustanovkalar shakilanish tamoyillari, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish asosida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishiqlishi kerak.

REFERENCES

1. M. Q. Raxmanova Chirchiq davlat pedagogika instituti p.f.f.d.(PhD) Bargida Baxadirovna Mirjalilova Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti O'QUVCHILAR IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH – IJTIMOIY ZARURIYAT SIFATIDA ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES
2. N.Ismoilova D.Abdullayeva IJTIMOIY PSIXOLOGIYA 0‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2013
3. Samatova Iroda Azamjon qizi Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrasи o’qituvchisi. Najimova Sh. Nizomiy nomidagi TDPU, talaba. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-quvchilarning-ijtimoiy-siyosiy-kompetensiyasini-shakllantirish-ijtimoiy-pedagogik-muammo-sifatida>